

**RAHBAR SHAXSI VA TAFAKKURI SIFATLARINING JAMOA A'ZOLARI
FAOLIYATIGA TA'SIRINI TADQIQ ETISH**

Allamuratov Baxodir Bekmurzayevich
Termiz davlat universiteti 2- kurs magistranti

Anotatsiya: *Rahbar shaxsi, uning asosiy sifat va xususiyatlari, rahbar shaxsining jamoa a'zolari faoliyatiga ta'sir qilishi, boshqarishi, ishning samarali usullari, boshqaruvin jarayonida nativiylikni ta'minlash haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Rahbar shaxsi, kadr, bozor iqtisodiyoti, psixologik tasnif, kommunikativlik, tashkilotchilik, tafakkur, nutq, sinchkovlik, harakter, boshqaruvin.*

Boshqaruvin jarayonini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun rahbar idora qilishning qaysi bo'g'indida bo'lishidan qatiy nazar muayyan qobiliyatlarga ega bo'lishi kerak. Rahbar o'zining shaxsiy fazilatlari, mustahkam harakteri, kuchli irodasi, barqaror hissiyoti barcha narsalarga va jabhalarga nisbatan maxsus qobiliyatlari bilan xodimlarini boshqara oladi. Chunki fan va texnikaning rivoji, odamlarda ochiqlik darajasining yuksak ko'rsatkichi, ijtimoiy tajribalarning ta'sirchan kuchi, kishilarning muayyan bilimlarga ega ekanligi, rahbarning komil inson kamolotini pog'onasiga ko'tarilishini taqozo etadi. Rahbar shaxsi barkamolligi, qa'tiy harakteri, milliy qiyofasidan tashqari bir qator qibiliyatlariga ega bo'lishi tabiiy ravishda obro' qozonishga puxta negiz hozirlaydi, lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon yaratadi, istiqbol rejalarini ro'yobga chiqaradi. Bizningcha, quyida mulohaza yuritiladigan qibiliyatlar rahbar kadr uchun juda muhim hisoblanadi. Rahbar qobiliyatining psixologik tavsifi:

1. Tashkilotchilik qobiliyati. Rahbar kadr bozor iqtisodiyoti davrida o'ta uddaburon, ishbilarmon, muassasa yoki korxonaning, idora yoki ilmiy markazning oldida turgan vazifalarni maqsadga muvofiq, sobitqadamlilik bilan bajarishni uyushtira olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Tashkilotchilik imkoniyatiga taxminan quydagilar kiradi: Rahbarlik qilayotgan ishlab chiqarishda moliyaviy va iqtisodiy masalalarni, to'g'ri va oqilona tashkil qilishlik, vaqtadan biroz ilgarilab ketish hissiyoti va tez payqash imkoniyati bilan qurollana olishlik; yangi g'oyalar, yo'naliishlar, ishlab chiqarish texnologiyasi, chet el ilg'or, tajribasini mahalliy sharoitga, xodimlarning saviyasiga moslashtirgan holda, amaliyotga tatbiq etishlik; favquloddagi ishlab chiqarish muammosini tezkorlik bilan hal qila bilishlik, o'z vaqtida individual yoki jamoaviy qaror qabul etishlik, bu borada nuqsonlarga kamroq yo'l qo'yishlik; xodimlar, o'rinosarlar, yordamchilar hissiyoti va mehnatga psixologik munosabati xususiyatini baholay olishlik hamda keskin o'zgarishlar yasash uchun muayyan chora va tadbirlar qo'llashlik. Masalan: Rag'batlantirish, jazolash, tanbeh berish, e'tiroz bildirish, xotirjamlik, real vadalar berish murosaga kelishlik. Shuningdek tobe kishilar jinsi, yoshi, aqliy va jismoniy imkoniyatini hisobga olib faoliyatni tashkil qilishga odatlanganlik; ijrochilar qobiliyati, iste'dodi, mehnat staji, intilishi, qiziqishi, irodaviy xususiyati, jonbozligi singari fazilatlarga binoan ish taqsimlashni yo'lga qo'yishdek ulkan vazifa turadi.

2. Rahbar tafakkuri mahsuli faol hayotiy pozitsiyaga yo'nalganlik qobiliyati. Rahbar iyomon-etiqodli, muayyan hayotiy pozitsiyali, mustahkam harakterli, sof, rostgo'y, samimi, jonkuyar, insonparvar, vatanparvar fazilatlari inson bo'lmog'i - xodimlar uchun ibrat-namuna vazifasini bajarmog'i lozim. Toki so'z bilan ish birligi amaliyotda bevosita o'z ifodasini topsin, boshqalar uning xatti-harakati va kishilar bilan munosabatida taqlid qilishga odatlansinlar. Rahbar korxona yoki muassasaning ko'zgusi, manaviyat, qadriyat va shaxslararo munosabat mezoniga aylansin. Poklik, mas'uliyat, fidoiylik namunasi taqlid uchun zamin hozirlasın, barkamollik uchun intilish tuyg'usini vujudga keltirsin.

3. Nutqiy qobiliyat. Rahbar savodxon, so'zlashga va notiqlik sanatiga ega bo'lisi shart. U tevarak-atrofdagilar bilan uzlusiz ravishda muomalaga kirishib turganligi tufayli nutqi ixcham, manoli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotali bo'lisligi muhim ahamiyatga ega. Nutqning jarangdorligi, so'zlashganda pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishlik uning tasirchanligini oshiradi. Favqulodda tasodifiy holatlarda nutq so'zlash, fikr almashish lozim bo'lsa, u holda sira hissiyotga berilmaslik, o'zini qo'lga olib, ohista, lavozimi va imtiyozini ko'z o'ngiga keltirib nutq faoliyatini amalgalash oshirish zarur.

4. Nufuzga ega bo'lism qobiliyat. Rahbar o'zining nufuzi bilan boshqarishni amalgalash oshira oladi, xolos. Lekin egallagan lavozim tub manodagi obro' keltirmaydi, chunki kishilarning unga nisbatan munosabati vaqtli xususiyatga ega bo'ladi. Barqaror, haqiqiy nufuzni egallah tabiiy ravishda amalgalash oshadi. Rahbar o'zining shaxsiy xususiyatlari bilimdonligi, aql-farosatiligi, mustahkam irodasi, salohiyati, istedodi talanti fidoiyligi, barkamolligi, kamtarligi, samimiyligi so'zning haqiqiyligi bilan obro' orttirish uquvchanligiga erishadi. Soxtalik, akobirlik, shaxsiyatparastlik, safsatabozlik, qattiqko'llik hech qachon chin nufuz qozonishga olib kelmaydi. Rahbar uchun har bir narsa oddiy, puxta, tabiiy, huquqiy, odatiy tusga ega bo'lism maqsadga muvofiq.

5. Pertseptiv (idrok qilish) qobiliyat. Rahbar uchun birinchi va ikkinchi darajali masalalar bo'lism mumkin emas, chunki hayot muayyan qismlardan tashkil topgan bo'ladi. Xuddi shu bois barcha narsalarga e'tibor qilish kerak. Rahbar qisqa vaqt oralig'ida ishlab chiqarish bo'limganlari, a'zolar, amaldorlar va yordamchi xodimlar tashqi qiyofasining ishga tayyorligi, mehnat faoliyatini tashkil qilishga taxtligi, ish faoliyatiga doir qurollarning sozligi, kishilarning kayfiyati bo'yicha ma'lumot olish fazilati perseptsiyada o'z ifodasini topishi kerak. Qisqa vaqt ichida umumiy holat bilan tanishish - ishlab chiqarishni qanday asosga qo'yish uchun muayyan negizni yuzaga keltiradi, ayrim oldindan ko'zlangan rejalgarda o'zgartirishlar kiritiladi.

6. Didaktik qobiliyat. Rahbar bevosita pedagog bo'lmasada, lekin uning faoliyati malum axborot va xabarlarni o'zga kishilarga etkazish bilan bog'liqdir. Xuddi shu bois turli toifadagi odamlarga, mutaxassislarga murakkab bilimlar, muammolar hamda axborotlarni oson yo'l bilan tushuntirish o'kuvchanligi mutlaqo zarur. Ayrim bir muammoni oddiy qorovuldan tortib to o'rnbosarlargacha singdirish muayyan qobiliyatni taqozo etadi. Favqulodagi holatlar, vaqt taqchilligi rahbardan didaktik qobiliyatga ega bo'lislilikni taqozo etadi. U mazkur qobiliyatni maxsus mashqlar, treninglar yordami bilan ijtimoiy hayotni tajriba ortishi orqali egallaydi.

7. Psixologik tashxis qobiliyat. Rahbar turli xususiyatlari insonlar bilan hamkorlik qiladi, ularni tarbiyalaydi, ularga ish o'rgatadi, etuk mutaxassis yoki mukammal shaxs sifatida kamol toptiradi. Har qaysi insonning kelajagini oqilonan tasavvur qilishdan iborat oldindan bashorat etish qobiliyatni rahbar uchun muhim ahamiyatga ega. Kelajak uchun kadrlar tayyorlash, ularni lavozimlarga ko'tarish kabi g'oyalarning barchasi rahbar uchun tashxis qobiliyatini taqozo etadi, chunki aniq mezonlarga asoslangandagina shaxsning faoliyati va imkoniyatini to'g'ri baholash mumkin, xolos.

Hozirgi zamonda rahbar kadr har tomonlama kamol topgan inson bo'lislini taqozo qiladi. Moliyaviy, iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy, milliy, sohalararo muammolar muhokama qilinayotganda rahbar shunchaki ishtirokchi emas, balki bahsning teng huquqli a'zosiga aylansin. Muammo mohiyatini tushunsin, unga o'z munosabatini bildirsin, toki ommadan tahsinlar olishga erishsin. Rahbarning faoliyati keng ko'lamli bo'lib, xuddi shu sababdan u loqaydlikka yo'l qo'yishi mumkin emas. Eng oddiy narsadan davlat ahamiyatiga molik muammogacha ma'sul bo'lganligi tufayli rahbar sinchkov, teran, kuzatuvchan bir davrning o'zida bir necha obektlarga o'z munosabatini bildira olishi lozim. E'tiborlilik xodimlarni xushyor torttiradi, mas `ullik esa tartib-intizomni mustahkamlaydi, loqaydlik illati muhitni tark etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Andreeva G. M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik .- M. Aspekt press, 1999.
2. Karimova V.M. va boshqalar. Mustaqil fikrlash-T;1999, 376 bet. IIIarq. 2000.
3. Karimova V.M. Auditoriyada bahs-munozarali darslarni tashkil etishning psixologik texnikasi (uslubiy tavsiyalar) -T.; 2000. 18bet.
4. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya(perev. s ashli, -SPB "Piter", 1999 y.
5. Valijonov . R. Menejment asoslari. T. "Universitet" 1996 y
6. G'oziev.E., Toshimov.R.Menejment psixologiyasi. Toshkent 2001y.